

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTIda
texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni institutning
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish
bo‘yicha tuzilgan savollar bazasi.

Texnikumning 5.32.06.01 – Buxgalteriya hisobi va audit - professional ta‘lim
mutaxassisligi bazasida,
Institutning 60410100 (5230900) – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar
bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishiga.

1-mavzu. Mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan
islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish

1. Buxgalteriya hisobining konseptual asoslari.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunining yangi tahriri qachon qabul qilingan?
3. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunning mazmuni va ahamiyati nimadan iborat?
4. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni nechta moddadan iborat?
5. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari nima va ularning ahamiyati qanday?
6. Nechta buxgalteriya hisobi milliy standarti mavjud, ularni qisqacha ta‘riflang.
7. O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qanday chora tadbirlar amalga oshirilmoqda?
8. O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish zaruriyati
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorining mazmuni.
10. Korxonalar hisob siyosatining mazmuni nimadan iborat?
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini shakllantirish tarkibi to‘g‘risida”gi Nizomi qachon qabul qilingan va mazmuni.
12. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) nima uchun kerak va ular nimalardan iborat?
13. MHXS O‘zbekistondagi an‘anaviy buxgalteriya hisoboti qoidalaridan nimasi bilan farq qiladi?

14. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunda buxgalteriya hisobining qanday tamoyillari keltirilgan?

15. O'zbekistonda auditorlik faoliyati qanday me'yoriy tartibga solinadi va uning qanday elementlari mavjud?

16. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri qachon qabul qilingan?

17. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunning mohiyati va uning ahamiyati qanday?

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 365-sonli «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida»gi Qarori mohiyati va uning ahamiyati qanday?

19. O'zbekiston buxgalterlar va auditorlarining milliy assotsiatsiyasi (O'BAMA) va uning faoliyat yo'nalishlari to'g'risida nimalar bilasiz?

20. O'zbekiston Auditorlar Palatasi (O'AP) va uning faoliyati to'g'risida nimalar bilasiz?

21. Auditorlik faoliyatining qanday milliy standartlari mavjud?

22. Qaysi xalqaro auditorlik tashkilotlarini bilasiz?

23. Auditning xalqaro standartlari kim tomonidan ishlab chiqiladi?

24. Auditorga malaka sertifikatini qancha muddatga beriladi?

25. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, qaysi tashkilotlar har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi lozim?

2-mavzu. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)

1. Buxgalter kasbi deganda nimani tushunasiz?

2. Buxgalterga qo'yiladigan qanday talablarni bilasiz?

3. Buxgalteriya hisobi bo'yicha qanday jamoat tashkilotlarini bilasiz va ularning vazifalari nimalardan iborat?

4. Buxgalterlarni milliy sertifikatlash tizimini tushuntiring.

5. Buxgalterlarni xalqaro sertifikatlashning qanday tizimlarini bilasiz?

6. Buxgalter kasbini egallash uchun qaysi fanlarni o'rganish zarur?

7. Korxonada buxgalteriya hisobini tashkil etish bo'yicha asosiy hujjatlarni aytib bering.

8. Buxgalteriya hisobiga rahbarlik qilish qanday amalga oshiriladi?

9. Buxgalteriya hisobini tashkil qilish prinsiplari nimalardan iborat?

10. Buxgalteriya hisobini tashkil qilishning asoslari va ahamiyati nimada?

11. Buxgalteriya xizmati qanday vazifalarni bajaradi?

12. Bosh buxgalterning huquqi, majburiyatlari va javobgarligi nimalardan

iborat?

13. Korxonada rahbarning huquqlari va burchlari nimalardan iborat?
14. Bosh buxgalter qanday vazifalarni amalga oshiradi?
15. Buxgalter qanday shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishi kerak?
16. Buxgalteriya hisobi xizmatining rahbari kim va u qanday talablarga javob berishi kerak?
17. Auditorlik kasbiga qanday malakaviy talablar qo'yilgan?
18. Auditor kim?
19. Auditorlik faoliyati bilan kimlar shug'ullanishi mumkin?
20. Auditorlik xizmatlarining qanday turlari mavjud?
21. Auditorlik tashkilotlarining turdosh xizmatlariga nimalar kiradi?
22. Buxgalteriya hisobida axborot texnologiyalarining o'rni.
23. Buxgalteriya hisobida foydalaniladigan dasturiy ta'minotlar.
24. Buxgalteriya hisobida baholash nima uchun zarur?
25. Hisob siyosatiga qo'yiladigan talablar.

3-mavzu. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)

1. Buxgalteriya hisobining rivojlanishiga qanday hissa qo'sha olasiz?
2. Buxgalteriya hisobining istiqbolini qanday tasavvur qilasiz?
3. Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish kim tomonidan amalga oshiriladi?
4. Buxgalteriya hisobi nima?
5. Buxgalteriya hisobiga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
6. Hisob siyosati nima uchun ishlab chiqiladi?
7. Audit va buxgalteriya hisobi o'rtasida qanday farqlar mavjud?
8. Audit va taftish, ularning qanday o'xshashlik va farqli tomonlari mavjud?
9. Auditning Axloq kodeksi to'g'risida nimalar bilasiz?
10. Auditorning qanday axloq (etikasi)lari mavjud?
11. Vijdonlilik va ob'yektivlik deganda nimalarni tushunasiz?
12. Auditor kasbining professional kompetentligi deganda nimalarni tushunasiz?
13. Auditorlik tashkiloti va auditorlarning mustaqilligi nimalarda namoyon bo'ladi?
14. Auditor ishlarining sifati qanday nazorat qilinadi?
15. Auditorlik tashkilotining huquqlari nimalardan iborat?
16. Auditorlik tashkilotining majburiyatlari nimalardan iborat?

17. Auditorlik tashkilotining javobgarligi nimalardan iborat?
18. Auditorlarning etika haqida tushuncha to'g'risida nima bilasiz?
19. Auditorlarning kasbiy faoliyati to'g'risida nima bilasiz?
20. Auditorlarning kasbiy etika turlari to'g'risida nima bilasiz?
21. Axloq kodeksining asosiy talablarlarini qanday ta'riflaysiz?
22. Xodimlarning auditorlik tashkilotlari bilan munosabatining qanday maqsad va vazifalar qo'yilgan?
23. Auditning Axloq kodeksi tamoyillari to'g'risida nima bilasiz?
24. Schyotlar tizimi va buxgalteriya balansi moddalarining o'zaro bog'liqligini tushuntiring.
25. Boshlang'ich hisob hujjatlariga nimalar kiradi?

4-mavzu. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi

1. Buxgalteriya hisobining schyotlar rejasi haqida tushuncha va uning ahamiyati.
2. Ikki yoqlama yozuv to'g'risida tushuncha va uning qo'llanishi.
3. Moliyaviy hisobot nima va uning ahamiyati nimalardan iborat?
4. Moliyaviy hisobot to'g'risida tushuncha, uning boshqaruvdagi roli.
5. Moliyaviy hisobotni tuzish, topshirish va tasdiqlash tartibi.
6. Moliyaviy hisobotlar kimga, qaysi muddatlarda topshiriladi?
7. Moliyaviy hisobotning qanday turlarini bilasiz?
8. Korxonada hisobotini rasmiylashtirishga kim javobgar?
9. Statistik va buxgalteriya hisobotlari va ularning tavsifi.
10. Xususi korxonalarda hisobotni tuzish zaruriyati mavjudmi?
11. Buxgalteriya hisobining qanday usullari mavjud?
12. Buxgalteriya hisobining maqsadi va vazifalarini tushuntiring.
13. Buxgalteriya hisobining qanday ob'yektlari mavjud?
14. Hisob turlarida qanday o'lchov birliklari qo'llaniladi?
15. Buxgalteriya hisobida xo'jalik muomalalarining necha turi mavjud?
16. Buxgalteriya balansi nima?
17. Buxgalteriya balansi aktivi va passivining bo'limlari nimalardan iborat?
18. Buxgalteriya balansining aktiv qismida nimalar aks ettiriladi?
19. Buxgalteriya balansining passiv qismida nimalar aks ettiriladi?
20. Buxgalteriya usullari haqida ma'lumot bering.
21. Korxonada audit nimadan boshlanadi?
22. Audit natijasi qaysi hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi?
23. Auditorlik tashkilotlarining reyestri nima?
24. Qanday auditorlik tekshiruvi majburiy deyiladi?

25. Qanday auditorlik tekshiruvini tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) auditorlik tekshiruvi deyiladi?

Kafedra mudiri

(imzo)

M. Mansurov